

**ERKIN A'ZAM HIKOYALARIDA ZAMON VA INSON MUNOSABATLARI:
“ANOYINING JAYDARI OLMASI ” MISOLIDA**

Choriyev Zufarbek Erkin o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: O'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin A'zam ijodida zamon va inson munosabatlari masalasi tahlil qilinadi. Adibning “Anoyining jaydari olmasi” hikoyasi asosida insoniy qadriyatlar, davrning ma'naviy muammolari va oddiy inson hayotining badiiy talqini o'rganilgan. Asarda yozuvchi o'tgan zamon bilan hozirgi kun o'rtasidagi ma'naviy tafovutni, insonning o'zlikni anglash jarayonini va hayotiy haqiqatlarga munosabatini chuqur falsafiy nuqtai nazardan yoritadi.

Kalit so'zlar: Ramazon va uning do'stlari haqidagi voqealar, qahramonning o'z qadr-qimmatini saqlash uchun qilgan harakatlari, adolatsizlik, soddadillik, ochiqko'ngillik, qiziquvchan, insoniylik, ishonuvchanlik mujassamlashgan.

Abstract: The work of one of the great representatives of Uzbek literature, Erkin A'zam, analyzes the issues of time and human relations. Based on the writer's story "Anoyining jaydari almasi", human values, spiritual problems of the era, and the artistic interpretation of ordinary human life are studied. In the work, the writer illuminates the spiritual difference between the past and the present, the process of human self-awareness, and the attitude to life's realities from a deeply philosophical perspective.

Keywords: Stories about Ramadan and his friends, the hero's efforts to preserve his dignity, injustice, naivety, openness, curiosity, humanity, and credulity.

Erkin A'zamning hikoyalari qahramonlarni ijtimoiy muhit va vaqtning talablari bilan bog'liq holda tasvirlaydi, ularning ichki dunyosi, hissiyotlari, ruhiy kechinmalari orqali zamon bilan inson munosabatlarini yoritadi. “Anoyining jaydari olmasi” hikoyasida Erkin A'zam oddiy insonning hayotidagi murakkabliklarni tasvirlaydi. Asosiy qahramonning ruhiy olami va atrofdagi ijtimoiy sharoitlar bilan kurashuvi hikoyaning markazida turadi.

Hikoyada vaqt va zamonning inson hayotiga ta'siri ko'plab detal va badiiy vositalar orqali ochib berilgan. Masalan, qahramonning o'z qadr-qimmatini saqlash uchun qilgan harakatlari, uning ichki dunyosidagi qarama-qarshiliklar, zamon sharoitlariga moslashish jarayoni badiiy tasvirlangan. Shu bilan birga, yordamchi qahramonlar orqali jamiyatning ijtimoiy normativlari, qadriyatlar va vaqt ta'siri yanada kuchliroq namoyon bo'ladi. Ramazon va uning do'stlari haqidagi voqealar aks etgan hikoyada soddagina o'zbek yigitining boshidan kechirganlarini ko'rish mumkin.

“Anoyining jaydari olmasi” – Erkin A’zamning hikoya qahramoni o’z nomi bilan tug’ilgan. Ramazondagi barcha fazilatlar oylar sultonidan o’tganmikan deya o’ylaysiz zero. Lekin ro’za-ramazonni unutgan avlod el orasida yurgan jo’ mardni qaydan anglab yetardi?!

Takabburli-gu turli ma’siyat-gunohlardan qalbi qorayib ketganlar, Ramazonning bori shu ekanini tushunmaydi. Xatti-harakatlaridan g’ijinadi, ustidan kulishadi hatto. Ramazonning odam, olam, hayot, silai-rahm bobidagi qanoatlari ularga mutlaqo yot. Shu ma’noda, “Anoyining jaydari olmasi” mungli, hazin hikoyani o’qib yengil tortasiz. Ramazon sizning ham qayg’ularingizni artgandek bo’ladi. Bir qarasang afandi, bir qarasang hotamtoy. U dunyoni beg’ubor, sodda tasavvuri ila ko’radi, qarichlash kerak bo’lganda, ochiq qo’llarini uzatadi. Hikoya qahramoni Ramazon, nazarimda, qaysidir bir jihatlari bilan Shukur Xolmirzayevning “Qariya”sidagi Qo’ziboy cholni eslatadi. Yodingizda bo’lsa, Qo’ziboy chol kinoxona yonida o’tirib olib ravochni deyarli suvtekinga ulashadi va bu ishidan olam-olam zavq tuyadi. Xuddi shunday holni Erkin A’zam qahramonida ham ko’rish mumkin. “U hay-huylab o’tgan-ketganni chaqirar, idishi bo’lsa idishini, bo’lmasa – qo’yni-qo’njini olmaga to’latib jo’natar edi” Ramazon bog’idan terib kelgan olmalarni mana shu tarzda “otamga qavm bo’ladi, ena jamoatimizdan qarindosh...” deya bepul berib yuboraveradi. Uning ba’zi bir hayotiy xulosalari, g’irrom jamiyatga, adolatsizlikka nisbatan isyonni faqat sho’roga qaratilgan deb o’ylaysizmi?!

Rostgo’yligi uchun “telba” bo’lib ko’ringan Ramazon bizning kunlar uchun ham begona. Chunki ko’pchiligimiz Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning “Rostgo’ylar bilan do’stlashing. Ular tinchlikda ziynat, xavfda qalqondir” deganini unutib qo’yanmiz. Bir tasavvur etaylik. Ramazon hikoyada so’ylamasin, hayqirmasin jo’shib. Tilsiz, soqov bo’lsin-a?! Nima bo’lardi? Deyarli hech narsa. Hech narsa o’zgarmasdi u gung bo’lganda ham. Kishining kimligi so’zida emas, ishida, ko’zida bilinmaydimi?! Yo biz faqat chiroyli so’zlovchi, amalda aytganining teskarisini qiladigan yolg’onchilarni suyamizmi?!

Yozuvchi hikoyani bitgan zamonlarda hadis eshigi berk edi. Chin ijodkor qalbi zavqi tabiiy sezimlar ila ko’p ko’hna haqiqatlarni angelaydi, degani rost. Janobimizning “tinchlikda ziynat” deganiga Shoirning hayoti misol bo’la oladi. Ramazon do’sti uchun hayot ziynati edi. “Xavfda qalqon” degani avvalo do’stini Tosh kabi bezori to’daning xurujidan xalos qilganida ko’rinadi. Qolaversa, poyezddagi notanish kimsaning lafziga, yalinib-yolvorishiga inongani “xavfda qalqon”ligini ko’rsatmaydimi? U, axir, odam bolasini do’st, birodar deb bilardi-ku! Nafsilamrini aytganda, Ramazonning hayotiy tutumlari-yu haqiqatlari nuqul bozor iqtisodi va jaraq-jaraq foydani ko’zlab tuzayotgan maqsad-muddaolarimizga muvofiq kelmaydi. Bu fikrga qo’shilmasangiz, xo’sh, ayting qani, “Mehr ko’p ko’rguzdim, ammo mehribone topmadim” deya bir-da kulib, bir-da bo’zlayotgan ramazonlar bilan to’n yopishgan do’st bo’larmidingiz?!

Adib. U anoyi emas. U risoladagidek odam. U buzilmagan. Balki biz buzilgandirmiz?.. U hayotda faqat yutqazib yuradi. Chunki u rol o'ynamaydi. Hayotni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qiladi, shundayligicha tushunadi" deydi. Darvoqe, "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasidagi ko'cha bezori Tosh obrazi va u bilan bog'liq epizod – lavhani adibning ikki yil burun yozgan "Akmal paxanning jiyani" hikoyasida ham ko'rish mumkin. Ramazon do'stiga bir qancha yangiliklarni aytadi, do'sti eshitgisi kelmasa ham u soddadillik bilan so'zlayeradi. Qishlog'idan gap boshlar ekan: kimningdir nosdan vos kechib sigaretga o'tishiyu, kimningdir eshon bo'lib ketganligi haqida ochiqko'ngillik bilan gapiradi.

Ramozanning hangomalarini tinglarkansiz, Boysun oralab yurgandek, ajabtovur odamlar to'dasiga kirib qolgandek bo'lasiz.

O'zi tayyorlanishga kelishiga qaramay do'stiga shahar aylanaylik deydi, Toshkent ko'chalarini kezgisi keladi. Ko'rgan narsalarni o'zichi nomlagisi keladi, suratxonaga ko'zi tushsa bormi u albatta do'sti bilan suratga tushigisi, do'stining sen katta odam bo'lib ketsang, senga ko'rsatish uchun deydi, rasmni ko'rib o'z xolingga tushasan, uyalib qolishing uchun menday do'sting borligiday deb gapiradi bu bilan nima demoqchi bizning Ramazon bilsizmi? Do'stiga bo'lgan ishonchi, uning albatta katta odam bo'lishi bilan bir qatorda, uning bu rasm orqali oyog'i yerdan uzilib ketmasligini ham ifodalamoqchi bo'ladi. Ramazonga xo'sh qanday suratga tushasan deyishiga uning otasi bilan birga tushgan quroldosh oshnasining rasmiga o'xshash ya'ni o'sha vaqtda an'ana bo'lgan deymizmi, xullas ko'rgan narsasiga qiziquvchan, soddadil va hammaga yaxshilik ulashuvchi inson sifatida gavdalanadi. O'zi Toshketnga tayyorlanish uchun kelgan bo'lishiga qaramay, hamqishloq student jo'ralarigacha xursand qiladi, oxirgi chaqasigacha ishladi keyin ularga qo'shilib kulishadi. Achinarlisi shundaki, ular Ramazonni ustidan kulishardi, shunaqa sodda bizni Ramazon.

Aslida Ramazonning qamalishiga ham soddaligi, ishonuvchanligi odamlarga bo'lgan vijdoniy munosabati desak yangilishmaymiz, negaki bir insonga yaxshilik qilmoqchi bo'ladi, aksincha uning aldoviga laqqa tushadi. Bu vaqtda u militsionerlar tomonidan ushlanadi va chayqovchi deb qamashga majbur bo'ladi buni men qimaganman deydiyu lekin aslida kim ekanligini aytmaydi, sotmaydi. Shunday ekan jamiyatdagi nohaqliklar, qolaversa odamlar bir-birini aldashi-yu Ramazonga qimmatga tushadi, xalq maqoli bilan ta'riflaganda "yemagan somsasiga pul to'lash" deganlaridek. Ramazon vijdoni toza — qalbi pok, niyati sof, boshqalarga yomonlik tilamaydigan, halol va samimiy kishidir. Ular har doim to'g'rilikni ustun qo'yadilar, bironi aldamaydilar, harakatlarida soddadil va ochiqko'ngil. Bunday insonlar uchun boylik yoki obro' emas, balki halollik, mehr va insoniylik muhimdir. Ularning vijdoni ularni noto'g'ri ish qilishdan to'xtatadi, boshqalarga

ozor yetkazmaslikka undaydi. Ular odatda atrofdagilarga ishonch va iliqlik baxsh etadigan, jamiyatda ezgulik urug‘ini sochadigan insonlardir. Ramazon obrazi orqali muallif insoniylik, ishonch, do‘stlik, fidoyilik, beg‘uborlik va sadoqat kabi yuksak qadriyatlarni ko‘rsatadi. Asar faqatgina bir kishining hayoti haqida emas, balki jamiyatda uchrab turadigan soddalikka nisbatan loqaydlik, moddiyatga mukkasidan ketgan zamon haqida ham o‘ylantiradi. “Anoyining jaydari olmasi” — yurakni larzaga keltiradigan, har bir insonni hayotdagi o‘z qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqishga undaydigan, ko‘ngil pokligi va do‘stlikning yuksak namunasi sifatida o‘qilishi lozim bo‘lgan hikoya.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olim Toshboyev “Hamdam axtaradi har qanday odam...” maqola “Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi”.
2. Erkin A’zam “Anoyining jaydari olmasi” hikoyasi Toshkent: “Factor books” 2022.yil
3. Shakarova Dilrabo Rustamovna: Psixolingvistika. Erkin A’zaming “Anoyining jaydari olmasi” hikoyasining psixolingvistik tahlil masalasi. Maqola “O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali” Toshkent 14-son 20.12.2022
4. Erkin A’zam badiiy olami: Ilmiy maqolalar va suhbatlar to‘plami. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014. –B.304.
5. Қурбонов С. Эркин Аъзам ижодида эврилаётган инсон тасвири Ўзбек тили ва адабиёти. – 2012, № 2. – Б.67-69.
6. info@kitobplus.uz
7. <https://Oyina.uz>
8. www.ziyo.uz
9. [@e_kutubxona](#)